

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
“XMI VA MAMLAKATSHUNOSLIK” FAKULTETI
“XITOYSHUNOSLIK VA KOREYASHUNOSLIK” KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Xitoyda EIZlarning barpo etilish sabablari va rivojlanish bosqichlari
(Shenchjen misolida)

Bajardi: 5342500 "Xitoyshunoslik"
ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Sultonova Maftuna Sadirdinovna_____

(imzo)

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots.Melibayeva G.A.

(imzo)

MUNDARIJA

I-BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARNING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. EIZlar shakllanishining xususiyatlari va ularning turlari.....	7
1.2. EIZlarning zamonaviy tasnifi.....	16
II-BOB. XXRDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING TASHKIL TOPISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI, ULARDAGI MAVJUD IMTIYOZLAR	19
2.1. Xitoyda EIZlarning yaratilish maqsadlari va barpo etilish bosqichlari	19
2.2. XXR iqtisodiyotida “Shenchjen” EIZsining tutgan o`rni	31
2.3. Xitoyning erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish tajribasidan O`zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlari.....	40
XULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	50
ILOVALAR.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investisiyalarni, birinchi galda, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart – sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mazkur vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy hududlar yetakchi o`ringa ega.

Shu boisdan bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari, xususan Xitoy, AQSH, Fransiya, Koreya Respublikasi, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda, maxsus iqtisodiy hududlarni (MIH) tashkil etish an`anaga aylangan. Birgina o`tgan asrning 90-yillar o`rtalarida dunyoda 1200 ga yaqin maxsus iqtisodiy hududlarning har xil turlari, jumladan, eksportga mo`ljallangan 300 dan ortiq ishlab chiqarish hamda 400 ga yaqin erkin ilmiy texnikaviy hududlar faoliyat ko`rsatgan. Chunki bunday hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqani jadal ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport – tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir. Erkin iqtisodiy hududlar eksportga yo`naltirilgan strategiyaning muhim tashkiliy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular mahalliy va xorijiy kapitalni jalb qilish uchun, eksportni kengaytirish, valyuta daromadini o`stirish, yangi texnologiyalarni qo`llash imkoniyatini yaratish, to`lov balansi holatini yaxshilash va umuman milliy itisodiyotni rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalash uchun yaratiladi.

Erkin iqtisodiy hududlar hozirga kelib to`xtovsiz rivojlanmoqda. Rivojlanish oddiydan murakkabga, arzon va tez sotiladigan variantdan ko`p tarmoqli va kapital talab qiluvchiga o`tib bormoqda. Zamonaviy jahon tajribasida 25 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning turlari mavjud bo`lib, ulardan ko`p ulushga ega bo`lganlar bu bojxona hududlari, to`lovlar olib tashlangan hududlar, bojxona erkin hududlari, erkin eksport hududlari, erkin eksportga mo`ljallangan ishlab chiqarish hududlari, erkin

ishlab chiqarish hududlari, iqtisodiy barqarorlik hududlari, o`zaro tadbirkorlik hududlari, texnika-iqtisodiy rivojlantirish hududlari, fan-sanoat parklari va boshqalar iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

XXRda erkin iqtisodiy hududlar 1970 yilning boshidan mavjud ekan, uning tajribasi ko`pgina rivojlanayotgan iqtisodiyoti o`tish jarayonidagi davlatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasi uchun ham foydalidir. O`zbekistonda ham iqtisodiyotni yuqori darajada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar esa 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinuvchi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to`g`risida”gi Farmoniga asosan, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etildi.

Yangitdan tashkil etilgan “Navoiy” va “Angren” erkin industrial-iqtisodiy zonalar bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o`rin egallamoqda. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon bu yerda 12 ta korxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg`ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, “Angren” maxsus industrial zonasini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilingan edi. Mazkur industrial zonada faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarga, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3-yildan 7-yilgacha bo`lgan muddatga keng ko`lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berildi, ularning infratuzilma obyektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta`minlanmoqda¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2012-йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизатсия йўлини қатъият билан давом эттириш. www.uza.uz.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish, ularning faoliyatini kengaytirish oldimizda turgan eng katta dolzarb muommolardan biridir. O'zbekistonda nafaqat erkin industrial-iqtisodiy zona balki boshqa turdagi hududlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bois shunday hududlarni shakllantirish bo'yicha xorij tajribasi zarur.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o'ziga hos xususiyatlari, ularning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni va roli ko'plab mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi — olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Jahonda erkin iqtisodiy hududlarining rivojlanishini o'ziga hos xususiyatlari, uning mohiyatini o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarida yoritila boshlandi. EIHlarning mohiyati, xususiyatlari va turlari kabi masalalar xorijlik iqtisodchi-olimlar Avdokushin E.F., Din Judjun, M.M. Kovalyov, V.V. Novik, Oded Shenkar, V.N.Usov, Ya.M. Berger va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarining nazariy uslubiy masalalari, turlari va ularning tasniflanishi, shuningdek jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni kabi masalalar bo'yicha o'zbek iqtisodchi olimlar Tursunov B.M., Maxmudov E.R., Melibayeva G.A., Isajanov A.A., To'xliyev N.G., Sadibekova B.D. larning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishining asosiy maqsadi XXRning erkin iqtisodiy hududlarini o'rganish va Shenchjen erkin iqtisodiy hududini Xitoy iqtisodiyotidagi tutgan o'rniga baho berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati, xususiyatlari va turlarini ilmiy jihatdan asoslash;
- XXRdagi erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanishini o'rganish;
- Shenchjen erkin iqtisodiy hududining Xitoy iqtisodiyotida tutgan o'rni;
- Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda Xitoy Xalq Respublikasini tajribasidan foydalanishni asoslab berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Shenchjen EIZsi.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Quyidagilarda o`z aksini topadi:

- muallif tomonidan turli iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlar umumlashtirgan holda erkin iqtisodiy zonalarining mohiyati ochib berilganligi va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy — iqtisodiy natijalariga baho berilganligida;

- jahon tajribasini o`rganish asosida erkin iqtisodiy zonalar tasniflashtirilganligi va ularning o`ziga hos jihatlari asoslanganligida;

- XXR iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar barpo etishning iqtisodiy shart-sharoitlari va omillari aniqlanganligida;

- erkin iqtisodiy zonalarini barpo etish bo`yicha Xitoy Xalq Respublikasini tajribasidan O`zbekistonda foydalanish yo`nalishlari asoslab berilganligida.

Bitiruv-malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: kirish, 2 ta bob, 5 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati va ilovalardan iboratdir.

I-BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. EIZlar shakllanishining xususiyatlari va ularning turlari

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) chegaralangan hududlar, shaharlar, dengiz va aviatsiya portlari hisoblanadi. Unda milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli iqtisodiy sharoitlar mavjuddir. Bu sharoitlar mamlakatni tashqi savdodagi, umumiqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va ilmiy texnologik vazifalarini yechishda yordam beradi.

Tarixiy jihatdan olganda dastlabki erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) XIV-XVI asrlarda paydo bo`la boshlangan. O`rta asrlarda erkin portlarni tashkil etish g`oyasi O`rta dengizning sharqiy va janubiy sohillarida joylashgan shahar davlatlarida keng tarqalgan edi.

“Erkin portlar” maqomi Genuya (1595 yilda), Venetsiya (1661 yildan) shaharlaridagi portlarga berilgan. Keyinchalik Rossiyada 1817 yilda Odessa, 1862 yilda Vladivostok hamda 1878 yilda esa Batumi shaharlariga “erkin port” maqomi berilgan.

Davlatlarda bozorning monopollashuvi va proteksionizm siyosatining kuchayishi bilan “erkin portlar” o`rniga “erkin iqtisodiy zonalar” tashkil etila boshlangan va unda asosiy maqsad resurslarni qayta ishlashga qaratilgan.

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etishning asoschilari sifatida angliyalik P.Xall va S.Xouv hamda amerikalik S.Butler hisoblanadi. Ularning fikricha mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy inqirozlar oldini olishda davlatning aralashuvi hech qanday yordam bermaydi, aksincha iqtisodiyotda davlat aralashuvini kamaytirish, ya`ni uni erkinlashtirish lozim.

Erkin iqtisodiy zonalar mohiyatini yoritishdan avval unga berilgan izohlarga to`xtalib o`tsak.

Dastlab erkin iqtisodiy zona erkin va boj to`lovlarisiz xorij tovarlarini olib kelish va olib chiqish uchun bojxona hududlaridan ajratilgan (katta dengiz portlari, temir

yo'l uzellari va aeroportlar) maxsus hududlar hisoblangan. Erkin iqtisodiy zonalarining vujudga kelishi 1973 yilda imzolangan Kioto konvensiyasi bilan bog'liq bo'lib, ushbu konvensiyaga muvofiq bunday zonalar tashqi savdoning maxsus shakli sifatida tan olindi.

1973 yildagi Kioto konvensiyasiga ko'ra EIZ tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "EIZ – bu davlat territoriyasining bir qismi bo'lib, unda xorijdan keltirilgan tovarlarga odatda soliq va bojxona hududidan tashqarida joylashgan tovar sifatida qaralib ular bojxona nazoratiga olinmaydi"².

Kioto konvensiyasidan so'ng erkin iqtisodiy zonalar jahonning ko'plab mamlakatlarida keng rivojlandi. XX asrning 90-yillari oxirlarida jahon bo'yicha bir necha mingdan ziyodroq turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyat ko'rsatdi.

Jahon amaliyotida EIZ lar tuzilishining ikki yo'nalishi mavjuddir:

Birinchi yo'nalish bo'yicha - hududiy yondashish, ya'ni EIZ larga aniq, konkret hudud deb qaralib, bu zonalarda kerakli imtiyozli tartiblar o'rnatiladi.

Ikkinchi yo'nalish esa, rejali hisoblanib, ya'ni unga konkret kompleks (majmuaviy) korxona deb qaraladi, hamda unga aniq sharoitlar va imtiyozlar beriladi.

EIZ larni tashkil qilishda, davlat o'z oldiga turli xil vazifalarni qo'yadi. Ba'zi bir davlatlar esa, ushbu zonalar orqali konkret mintaqaviy muammolarini hal etishga harakat qiladilar.

Bu mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p hollarda, kutilgan ishsizlik bilan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajasi bilan, ishlab-chiqaruvchilar va iste'molchilar qiziqishi hamda ularni himoyasi bilan bog'liqdir. Boshqa davlatlarda EIZlar o'z ishlab-chiqarishining raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or xorijiy texnologiyalardan va boshqarish tarjibalaridan hamda jamg'arma vositalaridan samarali va keng foydalanmoqdalar.

Har bir davlat mavjud global vazifalardan tashqari, o'z oldida turgan konkret vazifalarini aniqlashtirishga harakat qiladi.

Bu vazifalarni 3 ta yirik guruhlariga ajratish mumkin:

² Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны М., 1993 - 132-с

- iqtisodiy;
- ijtimoiy;
- ilmiy-texnikaviy.

Iqtisodiy maqsadlarga ko`ra:

- maxsus milliy va xorijiy kapitalni jalb qilish hamda barqaror qonuniy asosda turli tashkiliy muommolarni soddalashtirish;
- importni o`rnini qoplashda, ishlab-chiqarish mehanizmini tuzishda; tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirishda; importning ratsional bo`lishini ta`minlashda xalqaro kapitalni muomilasi va xalqaro mehnat taqsimoti ustunligidan foydalanish;
- EIZ larning turli shakllaridan foydalanib, o`z tashqi iqtisodiy faoliyatini yurgizayotgan barcha korxona va tashkilotlar orqali savdo monopoliyalarini yoq qilish;
- mintaqa va davlat byudjeti valyuta kirimlarini oshirish;
- milliy resurslarni chegaralangan zonalar ichida yig`ish (konsentratsiyalash) hisobiga qoloq mintaqalar rivojlanishini yuksaltirish;
- aholini bandligini oshirish, yangi ish joylarini tashkil etish, ishsizlik bilan kurashish;
- jahon talablariga mos keladigan texnologiyalarni boshqarishda menedjment madaniyatini tarbiyalash, moliyani tashkil etish, boshqarish sohasida jahon tajribasi amaliyotidan unumli foydalanish va yuqori malakali ishchi kuchi qatlamini tashkil etish;
- ichki bozorni to`ldirish, yuqori sifatli xalq iste`mol tovarlari bilan aholining talabini qondirish kiradi.

Ijtimoiy maqsadlarga ko`ra:

- yangi ish o`rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish;
- dunyo tajribasidan foydalangan holda malakali ishchi, muhandis, xo`jalik va boshqaruv kadrlarni o`qitish va tayyorlash;

- milliy bozorni yuqori sifatli ishlab chiqarish va iste'molga mo'ljallangan tovar va xizmatlar bilan to'ldirish;
- aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish ;
- hududlar yaqinida chegaralangan milliy resurslarni jamlash orqali boshqa mintaqalar rivojlanishini tezlashtirish.

Ilmiy - texnikaviy maqsadlarga ko'ra:

- ilg'or xorijiy va mamlakat hududida ishlab-chiqarilgan texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish ;
- innovatsiya va amaliyotga joriy etish jarayonlarini tezlashtirish;
- xorijiy olimlar va noyob mutaxassislarni jalb etish;
- konversiya kompleksi (majmuasi) infratuzilmasi va quvvatidan foydalanish samarasini oshirish³.

1-jadval

Erkin iqtisodiy hududlarning guruhlari



Manba: Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны М., 1993 - 135 –с. manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Chet el tajribasi shuni ko'rsatdiki, EIZ larni tashkil qilishda quyidagi sharoitlar zarur bo'ladi:

³ Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti III qism - Toshkent -2011. 4-b.

1. EIZ lar tashkil etilayotgan mamlakatlarda va mintaqalardagi siyosiy barqarorlikning mavjudligi;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy - buyruqbozlik, moliyaviy va soliqlar bo'yicha hamda EIZlar huquqlarini aniqlaydigan har tomonlama barqaror qonuniy bazaning mavjudligi;
3. Tabiiy-geografik sharoitlarning, agro-iqlimiy resurslarning mavjudligi (EIZ) tashkil etilayotgan hududlarning joylashishi, qo'shni iqtisodiy hududlarning EIZ lar bilan bog'liqligi va ularning transport magistrallariga yaqinligi
4. Aloqa, transport, ijtimoiy sharoitlar, energetikaning yaxshi rivojlangan infratuzilmasining mavjudligi;
5. EIZ larga xizmat ko'rsatadigan rivojlangan tijorat infratuzilmasining mavjudligi. (Banklar, konsalting va yuridik firmalar, auditorlik tashkilotlari uchun transport xizmatlarining mavjudligi);
6. EIZ lar ma'muriy boshqaruvidagi samarali strukturaning mavjudligi.

EIZ lar shakllanishida yuqorida aytib o'tganimizdek, tarixiy omillar ham juda katta rol o'ynaydi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etayotgan ko'pgina mamlakatlar bir qator qiyinchiliklarni o'z boshidan kechirishmoqda. Bu qiyinchiliklar, EIZ lar infrastrukturasini rivojlantirishda birlamchi kapital jamg'armasining kerakligi bilan bog'liqdir. Bu o'z navbatida, mintaqaviy va davlat byudjetlariga tushadigan mablag'ning salmog'ini kuchaytiradi. Boshqalari esa, EIZ lar bilan xorijiy investorlarning manfaatlarini baholash natijasida kelib chiqadi.

EIZ lar kapitallarni harakatlanishini imtiyozli sharoitlari, xorijiy investitsiyalarning o'sishi, mamlakatning ayrim iqtisodiy mintaqalariga ishlab chiqarish resurslari (sarmoya, ishlab chiqarishning asosiy fondlari va vositalari, yuqori malakali boshqaruv apparati) oqimining kuchayishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, boshqa mintaqalardagi iqtisodiyot muvozanatining buzilishini kuchaytiradi.

Shu o'rinda, EIZ lar o'zining ish faoliyati natijasida, nima uchun yuqori samaradorlikka erishmoqdalar - degan savol tug'iladi. Albatta, bu yutuqlar, ulkan miqdorda xorijiy investitsiyalarni mamlakatga qo'yilishi natijasida hamda chet el

kapitali uchun yo`lni ochiqligi evazigadir. Aksincha, EIZ larga bo`lgan xorijiy investorlarning qiziqishini ortib borishi, bu mamlakatdagi imtiyozlarning mavjudligidadir.

EIZ larda chet el sarmoyasi uchun quyidagicha afzalliklar yaratilgan bo`lishi lozim, bular:

- imtiyozli soliqlarning mavjudligini;
- mintaqaviy va milliy bozorga chet el sarmoyasining kirish huquqining mavjudligi;
- ancha past xarajatli ishlab-chiqarishni ta`minlash uchun muayyan sharoitlarning mavjudligi (jumladan, arzon ishchi kuchi hisobidan);
- pasaytirilgan foiz stavkalari bo`yicha moliyalash imkoniyatining mavjudligi;
- yerga mulkchilik huquqining mavjudligi;

Endi, bu yaratilgan imkoniyatlardan milliy iqtisodiyot, mintaq qanday naf ko`rishi mumkin degan savol kelib chiqadi va unga javob tariqasida, quyidagilarni takidlab o`tish joizdir:

- joylardagi tabiiy resurslardan yanayam ratsional foydalanish lozimligi;
- ushbu zonalarga yangi texnika va texnologiyalarni olib kirish kerakligi;
- savdo-eksport operatsiyalarini amalga oshirish, eksportga yo`naltirilgan tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- milliy va mintaqaviy iqtisodiyot strukturasini qayta qurish;
- aholini bandligini oshirish, ular uchun ish o`rinlari yaratish va uning natijasida ishsizlik darajasini pasaytirish;
- aholini yashash farovonligini oshirish, ularning oladigan daromadining ancha yuqoriligini ta`minlash va yuqori sifatli tovarlar bilan mintaqaviy bozorni yanada to`ldirish;
- ichki bozorda xalqaro tijoratni, mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni vaqtinchalik himoya qilish;
- xalqaro kreditlar uchun qulay sharoitlar yaratish va moliyalashtirishning

yangi manbalarini izlab topish;


- yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun yangi imkoniyatlarni izlash.

Mana shu yuqorida qayd etilgan imkoniyatlar har bir milliy iqtisodiyot uchun zarurdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning 25 dan ortiq turi mavjud.

2-jadval

Maxsus iqtisodiy hududlarning turlari

Faoliyat yo`nalishi bo'yicha:



Manba: Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны М., 1993 - 135 –с. manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1. Savdo-ombor hududi (The Store and trade zones)

Bu hududda chet el tovarlari oddiy bojxona to'lovisiz saqlanishi va sotilishi mumkin. Bu hudud 3 xususiyatga ega:

- a) ular dunyo bozoriga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladi;
- b) bu hududda davlat boshqa qismlaridan farqli ravishda soliq va bojxona nazoratidan imtiyozlarga ega bo'ladi.
- v) shu hudduda davlat tashqi savdosi rivojlanadi. Savdo ombor joylari nafaqat tovarlarni sotish va saqlash uchun balki aynan shu tovar qayta ishlashi va yaxshilanishi uchun ham xizmat qiladi.

Ularning hududida ko'riklar tashkil etish savdoni yuritish bank va sug'urta xizmatlarini namoyish etish mumkin, bu uchun savdo soliqlaridan to'lov olinmaydi. Barcha savdo omborlari suv portlarida temir yo'l va aeroport portlarida yani, tovar tranzit joylarida tashkil etiladi.

2. Erkin savdo hududi (The zones of the free trade)

Erkin savdo hududi-bu shunday "tijorat markazi"ki, uning ishi tovar aylanmasi va tashqi savdoni tezlatishi kerak. Ularning hududi chegaralangan bo'lib, hududi davlat bojxonasidan tashqaridagi qism hisoblanadi. Bunday hudud erkinligi deganda hududdagi barcha to'lovlar, shuningdek bojxona va import to'lovlari moliya nazoratidan ozodlik tushuniladi. Erkin hududga kirayotgan tovar deklaratsiya qilinmaydi, lekin bojxona ma'muriyati uni ichki nazorat qilishga haqli, bu ta'qiqlangan tovar olib kirmasligi va kontrabanda avj olmasligini oldini oladi. Bu hududga kirgan tovarlar saqlanayotganda ular joylashtiriladi, markalanadi, va nazorat qilinadi. Bu hududda saqlanayotgan tovarni saqlash muddati chegaralanmagan. Saqlash to'lovi esa ularning saqlash muddati, saqlash va sug'urta turlariga bog'liq.

3. Erkin bojxona hududi (The free customs zones)

To'lovsiz savdo va ombor hududlarining eng zamonaviy ko'rinishi bo'lib, bu erkin bojxona hududidir. Ular tashqi iqtisodiyot rivoji uchun tashkil etiladi. Bunday hududlarni boshqacha qilib maxsus va to'lovsiz, hattoki erkin bojxona hudududi deb atashadi. Bu hududlar odatda suv, xavza va havo portlarida, temir yo'l magistrallarida, shuningdek alohida import maxsulotlarini saqlash va qayta ishlash

hududlarida joylashgan bo'ladi. Bu hudud kema va boshqa transport turlarini yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Bu shunday to'lovsiz hududki, davlatning bir qismi bo'lishi bilan birga moliya jihatidan chegaradan tashqaridagi hudud kabi ko'riladi. Ular davlat aylanmasi bilan birga xalqaro tranzit operatsiyalarini ta'minlaydi. Tovarlarini erkin bojxona hududida turish muddati chegaralanmagan.

Imtiyoz berish tartibi erkin bojxona hududida bojxona to'lovlarini yengillashtirishga asoslangan. Chet el davlatlaridan davlat hududiga olib kirilgan tovardan import to'lovi olinadi. Moliyaviy xizmatlar turlari rag'batlantiriladi.

4. Eksport va ishlab chiqarish (The export-production zones)

Bu hududni boshqacha qilib "eksportni qayta ishlash hudud" va "eksportni rag'batlantirish maxsus hududi" deb ham nomlashadi. Ular o'zidan milliy hudduda joylashgan bojxona nazoratini aks ettiradi, odatda xalqaro portlarga yaqin joyda joylashadi. Tadbirkorlar milliy tovarlar iste'moli va ularni yetkazib berish uchun rag'batlantirishadi, qo'llanilayotgan tezkor amortizatsiya usuli investorlarga asbob uskunalarni tez vaqtda ko'chirish imkonini beradi. Arzon ishchi kuchi o'rtasida raqobatni qo'llab quvvatlash uchun mehnat tartibiga ayrim o'zgarish va imtiyozlar kiritiladi.

5. Kompleks hududlar (The complex zones)

Bu hududlar yuqoridagi barcha hududlarni o'z ichiga oladi. Tadrijiy rivojlanishga asosan kompleks rivojlantirish barcha hududlarda rivojlanishga nisbatan eng zamonaviy usuldir. Bu hududlar o'z ichiga savdo bojxona ishlab chiqarish va fan va texnika rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bu hudud o'z ichiga birlashgan tadbirkorlikni oladi.

6. Erkin fan-texnika hududi (The free scientific-technical zones)

Erkin va texnika hududini texnopolis va texnopark deb ham nomlashadi. Texnologik park deganda subyekt tadbirkorlik shartini taminlovchi zamonaviy bozor standartlariga javob bergan zarur kompleks xizmatlari tushuniladi. Texnopark esa zamonaviy dunyo talabiga javob beruvchi bozordir. Texnoparklar kichik biznes rivojlanishida katta o'rin tutadi. Qilayotgan ishiga qarab texnoparklar ilmiy va ilmiy kuzatish (ITTKI tovari, tajribali namunalar va mahsulot kichik seriyalari) bo'lishi

ham mumkin, (islohot tovarlari-fundamental kuzatish natijasi). Bojxona va kredit imtiyozlari dastlabki firmalar ishini va katta islohotlar oldidan firmalarga qo'shimcha yengillashtirishlar kiritishni o'z ichiga oladi⁴.

1.2. EIZlarning zamonaviy tasnifi

EIHNi zamonaviy tasniflanishi bu faqatgina ularga ta'rif berish emas balki, ularni tadrijiy rivojlanishini ishlab chiqarishga asoslanadi. Bu oddiy erkin hududini yanada rivojlangan hududga aylantirishning eng oson yo'lidir.

Erkin iqtisodiy hududning mohiyati har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. U yoki bu erkin iqtisodiy mintaqaga ta'rif berish yana shuning uchun murakkabki, bitta erkin iqtisodiy hudud bir necha turining xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Lekin nomidagi va tashkiliy-funksional jihatdan farqlanishiga qaramay, erkin iqtisodiy hududlarni bir qancha umumiy jihatlariga ko'ra guruhlash mumkin.

3-jadval

Erkin iqtisodiy hududlarni umumiy jihatlariga ko'ra turlari

Faoliyat turi yoki vazifasiga ko'ra	Milliy va Jahon iqtisodiyotiga integratsiya darajasiga ko'ra	Tarmoqqa qarashli belgilariga ko'ra	Mulkchilik hususiyatlariga ko'ra
• Erkin savdo mintaqalari • Eksport-ishlab chiqarish mintaqalari • Ofshor markazlar	• Ekstravertiv • Intravertiv	• Sanoat • Tehnopolislar • Savdo mintaqalari • Ofshor zonalar • Turistik • Bank • Konsalting • Audit va hokazo mintaqalar	• Davlat • Hususiy • Aralash mintaqalar

Manba: Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны М., 1993 - 135 –с. manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Texnoparklar hozirgi vaqtda boshqacha tuzilishga ham ega. Bunday xilma-xillik

⁴ Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. М., 1993 - 135 –с.

quyidagi hududlar olib borilayotgan faoliyati talab va maqsadlariga javob beradi

1) Ilmiy park (Science park)

U universitet va ilmiy markazlar yonida qurilgan bo'ladi. Ularni asosiy maqsadi ilmiy taraqqiyotni yanada rivojlantirish, hech qanday moddiy tovar ishlab chiqmaydi.

2) Innovasiya markazi (Innovation centre)

Bunday markaz asosiy maqsadi markazdan tashqarida ishlovchi, lekin bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan tadbirkorlarni (texnologiya, moliya va savdo-sotiq savollarga javob berish) qo'llab –quvvatlash.

3) Tijorat parki (Commercial park)

Bunday park o'z nomi bilan ishlab chiqarish, ko'riklar tashkil etish, tayyor tovarga qo'shimchalar kiritish bilan shug'ullanadi.

4) Texnologik qutb (Technology polus)

Bu o'zidan jiddiy tuzilishga ega hududni namoyish etadi. Yuqori malakali ishchi kuchi inkubator xizmatlari bank va boshqa xizmat turlarini o'z ichiga oladi.

5) Texnologik hudud (Technology zircum)

Bu yuqoridagi hududning barcha xususiyatlari va rivojlangan qism, shunigdek ilmiy parkni o'z ichiga oladi.

6) Sanoat parki (The industry park)

Odatda sanoat parklari bir sohada ixtisoslashmagan bo'ladi. Rivojlanmagan tuzilishga ega bo'lgan viloyatlarda joylashtiruvchi ishlab chiqaruvchilarga yordam ko'rsatib, ularni joylashtirish uchun foydali sharoit taklif qiladi. Ularni sanoat parkiga joylashgan muddati chegaralanmaydi.

7) Tijorat inkubatori (The business-incubator)

Sanoat parkdan farqli bu hudud qayta tuzilgan korxonalar ishini qayta rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Ularning ixtiyoriga yaxshi xaq evaziga korxona ijarasi va qo'shimcha xizmatlar (telefaks, kompyuter, komunikatsiya va x.k) menedjmentni qo'llab quvvatlaydi. Tijorat inkubatoriga yangi ishchi a'zolari taklif etish odatda yangi korxona ochilishi bilan bog'liq bo'ladi. Berilgan muddat tugashi bilan ular o'z ishchi joyini yangi ishchilarga bo'shatishlari kerak.

8) Ilmiy-texnik park (Science-teshnology park)

Bu park bir nechta korxonalar birlashmalaridan tashkil topgan bo'lib ilmiy-texnik park maqomini manzarasi va qurilish jihatidan oladi. Bu hudud faqat tovar ishlab chiqish va o'rganish joyi emas balki, ishchilarning yashash joyi hisoblanadi. Bu hududda yashash muddati chegaralanmagan.

EIHning bu ko'rinishlari hammasi emas. BMT tadqiqotlari natijalariga qaraydigan bo'lsak hozir, EIHni o'nlab turlari mavjud. Demak, shunday xulosaga kelamizki, erkin iqtisodiy hududlar barcha xilma-xillik natijasida, hatto eng talabchan investor talablarini qondira oladi. Ularning keng imkoniyati davlat muhtoj bo'lgan tarmoqni rivojlanishiga olib keladi. Masalan savdo-ombor hududlari foydalanilmayotgan joylarni ishlatishda, eksport hududlari tovar va xizmatlarni yetkazib berishda foydalaniladi.

Shunday qilib erkin iqtisodiy hudud tasnifi ularni turlarini qanday ish bajarishiga qarab guruhlariga bo'lishga olib keladi. EIH tuzayotgan davlat maqsadlari turlicha bo'ladi.

Ba'zi davlatlar hududlarni iqtisodiy mexanizm o'rnida ishlatsa, ba'zilar chet el texnologiyalarini jalb etishda, qolganlari esa davlat bosimini kamaytirish uchun ishlatadi.

EIHni shakllantirish shartlari. EIH tuzishni barcha maqsad va takliflari uni chet el investorlari uchun tuzishda amalga oshirsa bo'ladi. Shu maqsadda yaxshi EIH tuzishning bir necha omillarini aytib o'tamiz.

1. Siyosiy o'sish davlatda yaxshi investisiyalarni jalb etuvchi asosiy omildir.
2. Xaqlarni kafolatlovchi qonun chiqaruvchi baza borligi investorlarni davlatga bo'lgan qiziqishini orttiradi.
3. Yaxshi tuzilgan infratuzilmalar borligi (ishlab chiqarish va tijorat)
4. Tabiat geografik sharoiti ham eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.
5. Ixtiyoriy investorni jalb etuvchi omil bu yaxshi rivojlangan iqtisodiy muhit.

II-BOB. XXRDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING TASHKIL TOPISHI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI, ULARDAGI MAVJUD IMTIYOZLAR

2.1. Xitoyda EIZlarning yaratilish maqsadlari va barpo etilish bosqichlari

Maxsus erkin iqtisodiy hududlarni yaratilishi iqtisodiy jihatdan bir necha yillik tarixga ega. Xalqaro raqobat va texnologiyalarni tez suratlarda rivojlanayotgan bir sharoitda erkin iqtisodiy hududlar mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtiradi. Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab 600 dan ortiq turli xil erkin iqtisodiy hududlar mavjud. Bu erkin iqtisodiy hududlarning minimum 40 xil nomi bor. Ularning bazilari erkin portlar yoki erkin savdo zonalari, eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hududlar yoki ilmiy-sanoat parklari deb ham ataladi. Ular qanday nomlanishidan qat'iy nazar bu alohida hududlar yoki sohalar mamlakat doirasida tashkil etilib, ularda o'ziga xos alohida siyosat qo'llaniladi.

Xitoy haqida gapirganda uning yirik hududni qamrab olishi, aholisi soni bo'yicha (1.341 mlrd odam) dunyoda birinchi o'rinda turishi va dunyodagi katta mineral resurslarga egalik qilishini ta'kidlab o'tish lozim. XXR oxirgi o'n yillikda YaIM hajmi bo'yicha dunyoning ikkinchi (AQSHdan keyin) o'ringa chiqib oldi.

Mao Sze Dun vafotidan so'ng XXRda iqtisodiy islohatlar davri boshlanganligi e'lon qilindi ("GAYGE"). Bu iqtisodiy islohatlar: narx o'rnatilishidagi islohat, qadimiy "shartnomaviy" pudrat tizimiga o'tish, ochiq eshiklar siyosati va boshqalarni qamrab oldi. Xitoy iqtisodchilari mamlakatning barqaror rivijlanishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni izchil rivojlantirish bilan bog'liq ekanligini ta'kidladilar. Iqtisodchilarning bunday qarashlari, Xitoy hukumati raxbarlari, eng avvalo, Den Syaopinga har tomonlama ma'qul keldi.

XKP ning 11-chaqiriq 3- Plenumida "jahon uchun mamlakat derazalarini keng ochish" g'oyasini ilgari surar ekan, Xitoy hukumati rahbariyati mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi, uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeini

mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam berdi. Xitoy hukumati erkin iqtisodiy zonalar uchun ushbu va boshqa shunga o'xshash murakkab vazifalarni belgilab berar ekan, ushbu zonalarga har tomonlama samarali yordam berdi. Hukumat erkin iqtisodiy zonalarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun qulay sharoitlarni barpo etishga yo'naltirilgan qator chora – tadbirlarni amalga oshirdi. Iqtisodiy islohatlarning asosini “Kayfan” ya'ni ochiq eshiklar siyosati tashkil etadi. Bu siyosat Xitoy iqtisodiyotiga tashqi kapitalni qarzlar, to'g'ri investitsiyalar, chet el sherikchiligi asosidagi qo'shma korxonalar tashkil qilish va EIH orqali kapital jalb qilishni o'z ichiga qamrab oladi.

Xitoy o'z islohotlarini jadallashtirish uchun maxsus iqtisodiy zonalarining turli shakllaridan jadal foydalandi. Birinchi EIZ 1979-yilda Davlat kengashi tomonidan tashkil etilgan⁵.

1979-yil 15-iyulda XKP MQsi va XXR davlat kengashi “Guandun va Futszyan provinsiyalari XKP qo'mitalariga bergan raportida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moslashuvchan siyosiy choralar ko'rish” to'g'risida rezolyutsiyani qabul qildi, bu qonunga muvofiq eksperimental tartibda Shenchjen, Chjuxae, Shantou va Syamenda maxsus hududlar tashkil qilinishi qarori qabul qilindi. 16-may 1980-yilda XKP MQsi va XXR davlat kengashi “Maxsus iqtisodiy hududlar”ni ularning rasmiy nomi sifatida tasdiqladi. XXRda iqtisodiy islohatlar amalga oshirilayotgan vaqtda tashqi iqtisodiy a'loqalar borasida tajribaning yo'qligi, qonun va huquq bazasini davlatda to'liq shakllanmagan sharoitda EIHLarni tashkil qilinishi iqtisodiy islohatlarni oldinga siljishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xitoy xalq xo'jaligini modernizatsiyalash, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon standartlari darajasiga chiqarish uchun, teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik asosida barcha mamlakatlar bilan savdo — iqtisodiy munosabatlarini izchil kengaytirib bordi. Shu munosabat bilan, Xitoy hukumati tashqi savdo aylanmasini kengaytirishga yo'naltirilgan qator chora — tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, ilg'or texnologiya va zamonaviy uskunalar importini rag'batlantirish, boshqa mamlakatlar va transmilliy banklardan

⁵ Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. Toshkent-2011-215-b.

qarz va kreditlar olishga ko`maklashish bo`yicha ishlar amalga oshirildi.

Davlat o`z vaqtida eski an`analardan voz kechishga erishdi va qo`shma korxonalar barpo etish uchun, xorijiy investitsiyalarga ruxsat berdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ikki shaklda: Xitoy va xorijiy mamlakat kapitali asosida hamda yuz foizlik xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni jadal rivojlantirishga qaratilgan muhim chora — tadbirlardan biri erkin iqtisodiy zonalarining turli ko`rinishlari: alohida iqtisodiy zonalar, ochiq (dengiz bo`yi shaharlari, ochiq port shaharlari va boshqalarni) tashkil etish bo`ldi.

Bu zonalarining tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyotiga yirik miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o`rinlarini barpo etish, ishlab chiqarishni yangi texnika va ilg`or texnologiya asosida modernizatsiyalash imkonini berdi. Bu tadbirlarning barchasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga, eng avvalo tashqi iqtisodiy aloqalarning sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi⁶.

Xitoyda xalqaro savdoni izchil kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalariga alohida e`tibor qaratiladi. Keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida shu qadar ko`p muvaffaqiyatlarga erishildiki, xorijiy investorlarga taqdim etilgan imtiyozlarning bir qismi bekor qilindi. Masalan, 1996 yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan kiritilayotgan mashina, uskunalar va materiallarga boj to`lovlari qayta joriy etildi. Biroq bu chora -tadbirlarni Xitoy hukumatining xorijiy investitsiyalarni jalb etishni chegaralashga qaratilgan xatti harakatlari deb tushunish noto`g`ri bo`lar edi. Bu chora — tadbirlar iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo`nalishlaridan kelib chiqayotgan xarakatlardir.

Erkin iqtisodiy zonalar hozirgi kunda ham muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda. Xitoyning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini erkin iqtisodiy zonalarsiz tasavvur etish qiyin. Bu sohada qonuniy — me`yoriy xujjatlarni takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Masalan, eksportga mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalarga

⁶ Г.А. Мелибаева, О.Алиджанова Китайский опыт создания свободных экономических зон (на примере СЭЗ Шэньчжэнь) 185-с. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat” ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, TDSHI, 2011y.

solinadigan daromad solig'i 10 foizni, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalarga — 15 foizni va boshqa hududlarda 30 foizni tashkil etadi. Ko'p hollarda qo'shma korxonalar 2-5 yilga daromad solig'idan ozod qilinganlar. Erkin iqtisodiy zonalar eksporta boj to'lovlaridan ozod qilingan va litsenziyalanmaydi. Bojxona imtiyozlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, qo'shma korxonalar erkin iqtisodiy zonalarga olib kirilayotgan ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlarga boj to'lovlari to'lamaydilar.

Umuman olganda, Xitoy Xalq Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalar uchun quyidagi xususiyatlar xos:

- mamlakatning boshqa rayonlariga nisbatan, bozor munosabatlari sohasida erkinlikning yuqoriligi;
- xorijiy investitsiyalarga tayanish;
- sanoat tarmoqlari rivojlanishiga ustuvorlik berilishi;
- ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilganligi;
- xorijiy xom ashyolarni keng jalb etish;
- xorijiy investorlarga imtiyozlar va alohida ustunliklarning taqdim etilganligi;
- ishchi kuchining arzonligi va ortiqchaligi;
- qulay geografik joylashuvi.

Bu imtiyozlarning barchasi XXRda erkin iqtisodiy zonalar shakllanishiga va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga olib keldi.

Xitoy hukumati mamlakatning tashqi dunyo uchun ochiqqligini ta'minlash borasida yana bir qadam qo'ydi. Xitoyning 14 ta shahriga – Dalyan, Sinxuandou, Tyanszin, Yantay, Sindao, Yanyungan, Nantun, Shanxay, Ninbo, Venchjou, Guanchjou, Fuchjou, Chjanszyan va Beyxay – ochiq dengizbo'yi shahri maqomi berildi.

1984- yildan boshlab Xitoyning yirik daryolari Yanszi va Chjuszyan bo'ylarida, Fuszyan provinsiyasi janubidagi iqtisodiy uchburchakda, Shandun va Lyaodun yarim orollarida, Xebey provinsiyasi va Guansi-Chjuan avtonom rayonida ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etila boshladi. Natijada mamlakatning dengiz bo'yi hududlarida ochiq iqtisodiy kenglik shakllandi. 1992 – yildan boshlab Davlat kengashi sanksiyasiga

muvofig bir qator chegara shaharlari, shuningdek, ichki kontinental provinsiyalar va avtonom rayonlarining barcha ma'muriy markazlari tashqi dunyo uchun ochiq zona maqomini oldi.

Yirik va o'rta shaharlarda 15 ta boj to'lovlarisiz zona, 32 ta texnik-iqtisodiy o'zlashtirish zonasi va 52 ta davlat ahamiyatidagi yangi va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish zonasi tashkil etildi. Shunday qilib, Xitoyning dengizbo'yi, Yanszi havzasi, chegara va ichki kontinental rayonlari asosida tashqi dunyoga ko'p pog'onali va har tomonlama ochiqligiga erishildi.

Tashqi dunyo uchun ochiq bo'lgan barcha rayonlar eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot shakllanishi, valyuta tushumlarining o'sishi, ilg'or xorijiy texnika va texnologiyalarning kirib kelishi uchun vositachi rolini bajaradi.

Xitoy erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish – Xitoy iqtisodiy islohotlarning asosi edi. Erkin iqtisodiy hududlar tashqi ochiqlikni amalga oshirishda “tajriba hududi” bo'ladi. Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlanishi 5 bosqichni bosib o'tdi.

1-bosqich (1979-1985yillar) EIH larning yaratilishi:

1979-yil iyulda “Qo'shma korxona” haqida qonun qabul qilindi. Guandun va Futszyan provinsiyalari “ochiqlikning tajribasi” uchun tanlandi. Ular mamlakatning janubiy sharqiy sohillarida joylashgan bo'lib, qo'shni Gonkong va Aominda yashovchi ko'plab xitoylik emigrantlarning vatani bo'lib, hisoblanadi.

Tashqi ochiqlik siyosatini qo'llashda va mulkchilikni shakllantirishda Xitoy ushbu hududlarda ya'ni Guandun va Futszyan provinsiyalarining yana 4 ta shaxrida Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamenda EIH ni tashkil etishga qaror qiladi. EIH tashkil etishda sotsialistik ruhni saqlab qolgan holda, xo'jalik yuritish boshqaruvida o'ziga xos boshqaruv tizimi joriy etildi. Siyosiy jihatdan esa bu hududlar Gonkong va Makkao bilan asta sekin iqtisodiy intigratsiyaga kirishish va 1997-yil Xitoy materigi bilan birlashtirish maqsadi ko'zlangan edi. 1999-yil Tayvan bilan ham joriy etildi. Asosiy masala esa – shaxarlar infrastrukturasini shakllantirish, xorijiy kapitallarni jalb etish uchun sharoitlar yaratishdan iborat. EIH lar tashkil etilgandan so'ng 5-yil davomida investitsion iqlim shakllandi, xorijiy investitsiyalar hajmi ortdi,

ularning hajmi savdodan, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdan kengaya bordi.

2-bosqich (1986-1991yillar) EIH lar rivojlanishida eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni joriy etish:

1986-yil oktyabrda Davlat kengashi xorijiy investitsiyalar uchun imtiyozlar to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. Unga ko'ra eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar berilgan.

1986-yildan boshlab, barcha EIH larda davlat investitsiyalar soha tarkibini nazoratga oldi. Bir tomondan sanoat-qurilish obyektlari va infrastrukturani taminlashga qaror qabul qilingan, boshqa tomondan esa xorijiy investitsiyalar tanlovi kuchaygan edi. Sanoat obyektlari orasida eksportga yo'naltirilgani va yangi texnologiyani obyektlarga investitsiya ko'proq jalb qilingan. 1990-yil Xitoy hukumati Shanxayda yangi Pudun erkin hududini tashqi dunyo uchun ochiq deb qaror qabul qiladi. Shu tariqa Pudun EIH di paydo bo'ladi va u asosan moliyaviy va biznes-xizmat ko'rsatish sektoriga yo'naltirilgan edi.

3-bosqich (1992-1998) EIH lar nazorat boshqaruvi va o'sishi:

1990-yillar boshlaridan Xitoy islohotlari yanada kuchaydi va ochiqlik strukturasi har tomonlama shakllandi.

EIH lar ham yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Asosiy masala hali ham ishlab chiqarish strukturasi nazorat qilish ya'ni EIH larda, tashqi iqtisodiy faoliyatni samaradorligini oshirish bo'lgan. 1992- yildan keyin EIH lar ochiqligi yangi bosqichga o'tdi. Ushbu bosqich EIH lar rivojlanishining "oltin davri" deb ataladi. Ushbu davr mobaynida xorij korxonalar soni 240 000 ga yetdi, EIH rivojlanishi Xitoy uchun ijobiy yutuqlar keltirdi. 1998-yil 4 ta EIH ning YaIMsi 239, 38 mlrd yuanga yetdi. Investitsiyalarning asosiy fondagi summasi 80,81 mlrd yuan amalda esa 5,09 mlrd \$ ishlatilgan. Iste'mol tovarlarning chakana savdo summasi 85,83 mlrd. yuanni tashkil etdi. EIH lar eksportida xususiy mahsulotlar ulushi ortib bordi. Asosan sanoatda eksport tarkibi shakllandi.

4 – bosqich (1998-2001)

Osiyo krizisidan so'ng Sharqiy Osiyodan kelib tushadigan investitsiya hajmi kamaydi. Lekin investitsiya umumiy tarkibi yaxshilandi.

5 – bosqich (2001-yildan hozirgacha)

Xitoy JST ga a`zo bo`lishi va xorijiy korxonalar uchun ochiq sohalar xizmati chet el kapitalini hajmini oshishiga sabab bo`ladi. Shuningdek, nafaqat Sharqiy hududdagi EIH lar, balki butun G`arbiy Xitoy EIH ga aylandi.⁷

Xitoy Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari hamda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, qisqa muddatda, turli xil erkin iqtisodiy hududlarni shakllantira boshladi, ya`ni, mamlakatda, 1980 yildan boshlab, 5 ta maxsus iqtisodiy hudud tashkil topdi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- Shenchjen erkin iqtisodiy zonasi;
- Chjuxay erkin iqtisodiy zonasi;
- Shantou erkin iqtisodiy hududi;
- Syamen erkin iqtisodiy zonasi;
- Haynan erkin iqtisodiy hududlaridir⁸.

Xitoydagi 5 ta alohida iqtisodiy rayonlari ham tashqi dunyoga yo`naltirilgan zona hisoblanadi. Umuman olganda XX asrning 90 – yillariga kelib, Xitoyda erkin iqtisodiy zonalarining asosi shakllanib bo`ldi. Bu zonalar 320 ming kv. km. dan ortiqroq maydonni egallaydi. Bu zonalarda iste`qomat qiladigan aholi soni XX asrning 80-yillari boshlarida 90 mln kishini tashkil etgan bo`lsa, 90-yillarning boshlariga kelib, 160 mln. kishigacha, 2000 yilga kelib-300 mln. kishini va 2010 yilga kelib esa- 360mln.gacha o`sdi.

Maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish va rivojlantirishda, XXX rahbariyati ko`zlayotgan maqsadlar ko`p qirralidir. Ular quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- Erkin hududlar yuqori texnologiyali chet el investitsiyalarini jalb etishi mumkin;
- Texnologiya va nou-xauni chetdan keltirishi mumkin(import qilishi);
- Industrial mamlakatlarga mahsulotlar chiqarishi mumkin (eksport qilishi);
- Turizmni rivojlantirishi va unga bogliq bo`lgan xizmat ko`rsatish sohasini

⁷ Мелибаева Г.А., Алиджанова О.Т. Учебно-методический комплекс по предмету “Характерные особенности деятельности Свободных Экономических Зон Китая” Toshkent -2011-99 с.

⁸ Xitoy iqtisodiyoti III qism- Sadibekova B.D.- Toshkent -2011. 5-b.

kengaytirishi mumkin;

- Boshqaruv va menejmentning ilg`or usullarini o`rganib chiqishi va ularni amaliyotda qo`llashi mumkin;
- Mehnatga haq to`lashda tenglashtirish tamoyilidan voz kechishi;
- Qo`shimcha ish joylari va kadrlarni tayyorlash tizimini vujudga keltirishi;
- Mahalliy pudratchilikni rag`batlantirishi;
- Jahon bozori institutlari bilan aloqa o`rnatishi,
- Syanganni (Gonkong) Xitoy milliy iqtisodiy tizimiga kirishga tayyorlashi;

Xitoyning Aomen (Portugaliya Makaosi) va Tayvan provinsiyasi bilan qo`shish imkoniyatiga ega bo`lishi mumkin. Buning ustiga, Xitoy hukumati erkin zonalarda katta miqdordagi moliya mablag`laridan va ko`p millionli Xitoy ishbilarmonlarining bilimlaridan foydalanishni ko`zda tutgan edi. XXRda mintaqadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda, ishchi kuchi ancha arzondir. Masalan, Yaponiyada o`rtacha bir soatlik ish haqi - 14 dollarni, Gonkongda - 9 dollarni, Malayziyada esa, - 3 dollarni tashkil etadi, XXRda esa bu ko`rsatkich - 1 dollarga ham yetmaydi. Biroq, Xitoyda ishchilarning tayyorgarlik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi yuqorida sanab o`tilgan davlatlardagiga nisbatan, past bo`lib, ayniqsa, bu holat erkin zonalarni tuzish davrida yaqqol sezilgan.

Xitoydagi eng yirik iqtisodiy zona hisoblangan Shenchjen zonasi, u Guandun provinsiyaning janubida joylashgandir. U shimol tomondan Utun tog`lari va Boan okrugi bilan, janub tomondan, Gonkongning yangi hududlari bilan, Sharq tomondan Dapen ko`rfazi va G`arb tomondan Xouxay ko`rfazi bilan chegaradosh. Rayon 327,5 kv.km. maydonni egallaydi. Unda umumiy hajmi 22,4 mlrd. AQSH doll.hajmidagi 17,5 mingta korxona faoliyat ko`rsatmoqda va ularning 85% i Gonkong kapitaliga asoslangandir. Ulardagi sarmoya kiritilgan asosiy sohalar yadro energetikasi, elektronika, mashinasozlik, xizmat ko`rsatish, moliya, yuqori texnologiyalar sohasi hisoblanadi.

Chjuxay erkin iqtisodiy zonasi ham Guandun provinsiyasining janubida joylashgan. U G`arb tomonidan, Marvarid daryosi bilan, Janubda Makao (Aomen) bilan chegaradosh. Erkin iqtisodiy zona 15,16 kv.km. maydonni egallaydi va unda

xizmat ko`rsatish, og`ir sanoat, elektronika, port va yo`llarni qurish bo`yicha 4980 loyihalar amalga oshirildi, unga qo`yilgan sarmoyalarning 80% i Gonkong, Makao, Tayvan va Singapurdir;

Shantou erkin iqtisodiy zonasi Guandun shaxrining Shantou shahrida joylashgan. U ikki qismdan iborat:

Birinchi qism Shantou shaxrining sharqiy qismini o`z ichiga olib 22,6 kv.km maydonni egallaydi va ikkinchi qism Shantouning janubiy qismida joylashgan Guanjou yarim oroli bo`lib, 30 kv.km maydonni egallaydi. Unda neft kimyosi, elektronika, portlarga, xizmat ko`rsatish, kiyim-kechak va oyoq- kiyim ishlab chiqarish sohalariga 95%lik Gonkong, Tayvan va Singapurlardan xorijiy sarmoya qo`yilib, 3000 ta loyiha amalga oshirildi (3,5 mlrd. AQSh doll.);

Syamen erkin iqtisodiy zonasi Futszyan provinsiyasining Syamen shaxrida joylashgan. U o`z ichiga Syamen orolini va Gulan orolchasini oladi, umumiy maydoni 131.kv.km.ni tashkil etadi. Unga 15 mlrd.AQSh doll.hajmida xorijiy sarmoya asosan, Tayvandan elektronika, tekstil, oziq- ovqat va kimyo sanoatlariga (80%) kiritilib, unda 4150ta korxona faoliyat ko`rsatmoqda;

Xaynan erkin iqtisodiy zonasi alohida orol hududi bo`lib, uning maydoni 34 ming kv.km.dan iboratdir. Unda umumiy hajmi 22,3 mlrd. AQSh doll.da xorijiy sarmoya qo`yilib, bugungi kunda 7320ta korxona faoliyat ko`rsatmoqda;

Pudun iqtisodiy zonasi. 1990 yillar boshida, Shanxayda, yangi- Pudun erkin iqtisodiy rayoni tashkil etildi. 1992-yildan boshlab, bu hudud xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo`yicha, katta muvaffaqiyatlarga erishib, bugungi kunga qadar unda avtomobilsozlik, elektronika, uskunasozi, telekommunikatsiya, yuqori texnologiyalar va energetika sohalari bo`yicha 27,3 mlrd. AQSh doll.dagi 5405 ta loyihalar amalga oshirildi.

Kunmin erkin iqtisodiy hududida asosan, xizmat ko`rsatish, elektronika, tekstil, kiyim- kechak sanoatlari sohalariga xorijiy sarmoyalar kiritilib, 2742ta loyihalar amalga oshirilmoqda⁹.

⁹ Мелибаева Г.А., Алиджанова О.Т. Учебно-методический комплекс по предмету “Характерные особенности деятельности Свободных Экономических Зон Китая” Toshkent -2011-33 с.

EIZ tajribasining o'ziga xosligi, ular bugungi Xitoy uchun xorijiy va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, u yoki bu tarmoq rivojini tezlashtirish bo'yicha mintaqadan ko'ra ko'p narsa deganidir. Xitoylik iqtisodchilarning ta'kidlashicha, Xitoy ElZlarida butun Xitoyning yangi yuz yillikda yashaydigan iqtisodiy modelning barpo bo'lishi va sinalishi yuz bermoqda. Xitoy hukumati kuchli erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etar ekan erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishining strategik yo`nalishlarini belgilab berdi, ular oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo`ydi va ularni amalga oshirdi.

Bu maqsad va vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, erkin iqtisodiy zonalar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirish va Xitoy tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri – “tashqi dunyo uchun ochish” tamoyilini hayotga tatbiq etishga yordam berdi;

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar siyosiy va iqtisodiy tomonidan, barcha mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning sezilarli darajada o`shishiga kuchli turtki bo`ldi va “Xitoy sotsialistik bozor iqtisodiyoti – jahon iqtisodiyoti” zanjirida o`ziga xos muhim xalqaga aylandi;

Uchinchidan, xorijiy investorlar uchun ochiq hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar nafaqat, yuqorida qayd etilgan hududlar, balki Markaziy, Shimoliy – G`arbiy va Janubiy – G`arbiy rayonlarga xorijiy investitsiyalarni, zamonaviy texnologiya va uskunalarni jalb etish bilan bog`liq tashqi iqtisodiy siyosatning muxim yo`nalishini amalga oshirishda katta rol o`ynaydi;

To`rtinchidan, erkin iqtisodiy zonalar rivojlangan mamlakatlar kabi fan va texnikaning eng yangi natijalaridan, yuqori va unumli mehnatdan, zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlaridan, xo`jalik yuritishning yangi shakllaridan foydalanadigan o`ziga xos laboratoriya vazifasini bajardi;

Beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalar qulay geoiqtisodiy joylashuvidan, boy tabiiy- iqtisodiy resurslaridan, shu hududda istiqomat qilayotgan axolining malakali mehnatidan samarali foydalanishi, shuningdek, xorijiy investisiyalarni keng miqyosda jalb etishi sharoitida qisqa muddatlarda yuqori iqtisodiy rivojlanish sur`atlariga, ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholining faravonligini muttasil

oshirib borishga erishdilar;


Oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalar Xitoyning qoloq hududlari uchun ijobiy namuna, ichki muvoffaqiyatlarni ko'rsatuvchi o'ziga xos vitrina, shuningdek, Xitoy iqtisodiyotini oldinga yetaklovchi lokomotiv vazifasini bajardilar;

Yettinchidan, xorijiy investorlar uchun ochiq bo'lgan eryush iqtisodiy zonalar eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarish turlari barpo etiladigan xudud hisoblanadi. Mazkur korxonalar mahsulotlari Xitoyning barqaror xalqaro savdosini kengaytirish, uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeni mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni xal etishga yordam berdi;

Xitoy hukumati erkin iqtisodiy zonalar uchun ushbu va boshqa shunga o'xshash murakkab vazifalarni belgilab berar ekan, ushbu zonalarga har tomonlama samarali yordam berdi. Hukumat erkin iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlarni barpo etishga yo'naltirilgan qator chora – tadbirlarni amalga oshirdi.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi erkin iqtisodiy zonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xorijiy investorlarning Xitoy iqtisodiyotiga qiziqishlari, eng avvalo, mahalliy ishchi kuchining arzonligi, Xitoy bozori ko'lami va miqyosining kengligi, mamlakatning tabiiy — iqtisodiy resurslarga boyligi, yer va ishlab chiqarish maydonlari uchun to'lovlarning arzonligi bilan belgilanadiki, bu xususiyatlar, avvalo, Xitoyda faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalarga xos. Aynan erkin iqtisodiy zonalar tufayli, turli xil xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning Xitoyga bo'lgan ishonchi va e'tibori ortmoqda. Xitoyda faoliyat ko'rsatayotgan jami erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan jami bevosita xorijiy investitsiyalarning 1979-2011 yillarda 90 foizdan ko'prog'i ular hissasiga to'g'ri keldi. Iqtisodiy islohotlar asosiy yo'nalishlari va “ochiq eshiklar siyosati” ning bosqichma – bosqich joriy etilishi, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi bilan Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyati sezilarli darajada faollashdi.

Erkin iqtisodiy zonalarda imtiyozlar va ragʻbatlar tizimi



Manba: Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны М., 1993 manbasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bu sohada, eng avvalo, qonuniy va meʼyoriy asoslarini tartibga solish boʻyicha ishlar amalga oshirildi. XX asrning 80 – yillar oxirlari va 90-yillar boshlarida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi, 200 dan ortiq qonun va meʼyoriy hujjatlar amal qilar edi. Bu qonunlar orasida “Xitoy Xalq Respublikasining Xitoy – xorijiy qoʻshma korxonalar toʻgʻrisidagi Qonuni”ni

(1979 yil 8 iyul), “XXRning Xitoy xorijiy qo’shma korxonalarini soliqqa tortish to’g’risidagi qonuni”ni (1980 yil 10 sentyabr), “XXRning iqtisodiy shartnomalar to’g’risidagi Qonuni”ni (1985 yil 21 mart), “XXRning 100 foizli xorijiy korxonalar to’g’risidagi Qonuni”ni (1986 yil 12 aprel), “XXRning Xitoy – xorijiy kooperativ korxonalari to’g’risidagi qonuni”ni (1988 yil 13 aprel), “XXRning Xitoy va xorijiy kapitalga asoslangan qo’shma korxonalar to’g’risidagi qonuni”ni va boshqalarni alohida ko’rsatish mumkin. Ushbu hujjatlarda xorijiy tadbirkorlarning huquq va majburiyatlari, ularning imtiyozlari aniq ko’rsatib berilgan.

Erkin iqtisodiy zonalarini takomillashtirishda asosan yuqori texnologiyalarni joriy etish muhim rol o’ynaydi. Buni amaldagi natijasi sifatida texnoparklarni tashkil etishni ta’kidlash lozim. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida Xitoy hukumati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida ilmiy va ta’lim sohalarni barqarorlashtirishga alohida e’tibor berdi. Shu borada Xitoyda ilmiy rivojlanish programmalari qabul qilindi. Ular “865” programmasi, “Iskra”, “Fakel”, “973” dasturlaridir. Xitoydagi barcha yuqori texnologiyalar bilan bog’liq bo’lgan soha yutuqlari ushbu “865” programmasi bilan bevosita bog’liq. 60% Xitoy texnologiyasi xalqaro darajaga yetdi. Huatiao chet eldagi xitoyliklar bo’lib, 90% investitsiya aynan ushbu “hutatiao” lardan keladi. Xitoyning jahon bozorida eng yuqori o’rinni egallashga sababchi shuningdek, eng takomillashgan zonalar quyidagilar: Shenchjen, Pudun va boshqalardir.

2.2. XXR iqtisodiyotida “Shenchjen” EIZsining tutgan o’rni

Guandongning Janubiy provinsiyasida joylashgan. Janub tomondan Gongkongdan Shenchjen daryosi bilan ajralib turadi. U shimolda Guandundan va Janubda Xunjou bilan chegaradosh, Day Bey va Dapeng Bey bilan Sharqda Lingdun dengizi bilan va g’arbdan Pearl daryosi bilan chegaradosh. Shenchjen 310 ta daryoga va daryochalarga ega.

Shahar hududi 1,991.64 kv.km maydonni egallab, seryog’in va quyoshli havosi bilan subtropik iqlimga ega. Shuningdek tropik mevalarga boydir.

Shenchjenning geografik joylashuvi




Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/>

2010 yilning 26 avgustida XXRda birinchi EIH, Shenchjenni ochilganligining 30 yilligi nishonlandi. 2011-yilning oxirlarida Shenchjenning doimiy yashovchi aholisi 10.47 millionga yetdi.

1-diagramma

Shenchjen aholisining dinamikasi (2010 yil)



■ Doimiy ro'yxatdan o'tgan aholi (xukou) ■ vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan aholi

Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/>

Hozirgi kunda Shenchjen XXRning eng rivojlangan hududlaridan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM bo'yicha XXR shaharlari orasida birinchilar qatorida turadi. 30 yil oldin Shenjen bir necha baliqchi qishloqlarning yig'indisidan iborat edi. XXR iqtisodiy islohatlari "arxitektor"i Den Syaopin tomonidan joriy qilingan islohatlar, birinchi tajriba bo'lmish Shenchjen shahrini keyinchalik esa butun Xitoyni dunyo bilan bo'gladi. Shenchjen subprovinsional darajadagi shahar, XXR janubidagi Guandun provinsiyasida joylashgan, Gonkong bilan chegaradosh. Aholisi 2010-yil oxirida 8,912 mln odamni tashkil etgan¹⁰.

4-jadval

Shenchjenning ma'muriy bo'linishi

№	Rayon	Xitoycha nomlanishi	Pininda aytilishi	Aholi (2010 yil)	Maydon (km ²)	Zichligi (aholi./km ²)
Shahar tumanlari				3 538 275	412	8 588
1	Futyan	福田区	Fútían Qū	1 318 055	79	16 756
2	Loxu	罗湖区	Luóhú Qū	923 423	79	11 726
3	Nanshan	南山区	Nánshān Qū	1 087 936	182	5 877
4	Yantyan	盐田区	Yántián Qū	208 861	72	2 798
Shaharga kiruvchi tumanlar				4 470 032	784	5 702
5	Baoan	宝安区	Bǎo'ān Qū	2 638 807	402	6 564
6	Lungan	龙岗区	Lónggǎng Qū	1 831 225	382	2 794

¹⁰ Мелибаева Г.А., Алиджанова О.Т. Учебно-методический комплекс по предмету "Характерные особенности деятельности Свободных Экономических Зон Китая" Toshkent -2011-33 с.

Yangi kichik tumanlar				2 349 631	793	2 623
7	Guanmin	光明新区	Guāngmíng Xīn Qū	481 420	156	3 097
8	Pinshan	坪山新区	Píngshān Xīn Qū	309 211	168	1 852
9	Lunxua	龙华新区	Lónghuá Xīn Qū	1 379 000	175	7 880
10	Dapen	大鹏新区	Dàpéng Xīn Qū	180 000	294	612
Hammasi				10 357 938	1 989	5 201

Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/> ma`lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Bu hududlarga qisqacha ta`rif beradigan bo`lsak, **Futyan** rayoni Shenchjenning ma`muriy va madaniy markazi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, yangi ish boshlash, savdo-sotiq aloqalarini boshlashga hamda yashash uchun qulay joy hisoblanadi. Futyan shahri bir nechta (Futyan, Xuatsyanbey, Nanyuan, Yuanlin, Shatou, Syanmixu, Meylin, Lyanxua va Xuafu) kichik tumanlarni o`z ichiga qamrab oladi.

Loxu Shenchjenning savdo-moliyaviy va transport markazi hisoblanadi. O`z ichiga shaharning eski qismini qamrab oladi va bir nechta (Dunmen, Sungan, Tsins Huyxe, Dunsyao, Dunxu, Xuanbey, Nanxu, Guyyuan va Lyantan) kichik tumanlardan iborat.

Nanshan port rayoni bo`lib, yuqori texnologiyali sanoat sohasi va ko`ngilochar hamda fan va ta`lim markazi hisoblanadi. Bir nechta (Nanshan, Nantou, Shaxe, Chjaoshan, Yuexay, Taoyuan, Sili, Shekou, Chivan va Mavan) kichik tumanlarga bo`linadi.

Yantyan port sanoati, ko`ngilochar va yashash joyi uchun qulay rayondir. To`rtta kichik tumanlarga bo`linadi. (Yantyan, Shatoutszyan, Meysha va Xayshan)

Baoan – sanoatlashgan va yashash uchun qulay rayon. Xalqaro aeroport

joylashgan hudud hisoblanadi.

Lungan - sanoatlashgan va yashash uchun qulay rayon.

Guanmin - sanoatlashgan va yashash uchun qulay rayon.

Pinshan - sanoatlashgan va yashash uchun qulay rayon.

Lunxua - sanoatlashgan va yashash uchun qulay rayon.

Dapen – dam olish zonasi bo`lib, milliy park, plyaj, orol va dengiz mahsulotlari zonaning ko`rki hisoblanadi.

Xitoy dunyosiga darvoza bo`lmish - Shenchjen tez rivojlangan shaharlarning biridir. Shahar shuningdek, Xitoy g`arbining yuqori texnologiyalar va manufakturalar markazi, portdan foydalanish bo`yicha to`rtinchi o`rinda turadi . Yuqori texnologiyalari, logistika, moliyaviy xizmat va madaniy sanoatlashish shaharning asosiy yo`nalishlaridir.

Shahar dizayni bilan ham mashhur, 6000 ta dizayn korxonalarida 600000 ishchisi bor. 19-noyabrda 2008-yilda Shenchjen YUNESKOning Bunyodkor Shaharlar Markazi a`zosi bo`lgan va “dizayn shahri” maqomini olgan. Shenchjen – ekologik yashil shahardir, uning yarim maydoni tabiatni himoya qilishga qaratilgan bo`lib, o`sha hududda qurilish taqiqlanadi. Yaqin orada, ommabop mukofot joriy etildi. Mukofot lauriati bo`lib, TOP 500 talikka kirgan, zona himoyasi uchun xalqaro tashkilotlardan va Xitoy hukumatidan Milliy Bog` shahri, Milliy Fuqaroviy Bog` nomli maxsus oltin sovg`a olgan.

Shenchjen – ko`ngilli yordam va xayriya keng tarqalgan shaharlardan biridir.

Ovoz berishlariga ko`ra, ushbu shahar Xitoyning migrantlar uchun sevimli shahri hisoblanadi. Ajoyib Shenchjen shahri Janubiy Xitoyning mashhur turistik joyi hisoblangan . 2010-yili “ New York Times “ gazetasi ma`lumotlariga binoan, jahon bo`yicha turistlarni o`ziga eng ko`p jalb etadigan markazlarning 31 lik ro`yhatiga kirgan .Shenchjen maxsus parklari bilan mashhurdir. Tabiat va sohil bo`yi kurortlarini sevuvchi sayohatchilarni magniti hisoblangan . Shenchjen 2011-yil 26 yillik Universiadani qabul qilgan. O`yin tarixida eng yosh shahar bo`lgan. Universiada Xitoyda o`tgan 3-sport musobaqasi edi. Birinchisi Xitoyda o`tkazilgan, ikkinchisi Pekinda Olimpik o`yin va Guanchjouda Osiyo o`yinlari bo`lgan . Turizm

rivojlanishi uchun ideal tabiiy diqqatga sazavor joylarga juda boy .

Shenchjen migrantlar uchun ochiqlikka, yangilikka (innovatsiya), tolerantlikka ega shahardir. Ichki va tashqi tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ideal joy hisoblanadi. U Xitoyning “eng dinamik shahri” va migrantlarning “eng sevimli shahri” deb nomlangan .


Shenchjen Guandondagi migrantlar uchun “mandarin tili” hukmronlik qiladigan yagona shahardir. Ko`p umum xizmat ishchilari, professionallar va tadbirkorlar ingliz tilida so`zlasha oladilar . Ko`p yoshlar ingliz va konton tilida so`zlasha oladilar. Ko`proq aholi va hukumat ishchilariga xorijiy tillarni o`rgatish maqsadida “Shenchjen xorijiy tillarda gapiradi” programmasi butun mamlakat bo`ylab o`tkaziladi.

Shenchjen Xitoyning barcha katta va kichik shaharlarning eksport hajmini 18 yil ketma ket eng choqqisini zabt etdi. Shaharda 500 ta dunyo miqyosidagi global kompaniyalarning 180 ga yaqin bo`limlari mavjud.

2011-yilda Shenchjen iqtisodi rivojlanishning eng cho`qqisiga ko`tarildi. Xitoy shaharlari ichida to`rtinchi o`rinni egallagan holda, YaIM 10 % ga ya`ni 1 trln.100 mlrd. yuanga o`sdi. Iste`mol tovarlari sotuvi 17,8% ga ya`ni 352,09 mlrd. yuanga oshdi. Tashqi savdo esa 19,4% ga, ya`ni 414,1 mlrd dollarga oshdi.

2-diagramma

2011- yilda Shenchjenning YaIMi ko`rsatkichi (mlrd.yuanda)




Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/> ma`lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

2011-yil Shenchjenda to'gridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4.697 mlrd. dollarga yetdi va bu o'tgan yilgiga nisbatan 3.3%ga yuqori ko'rsatkichdir. Gongkongdan jalb qilingan investitsiya 3.098 mlrd. dollarga etdi, o'tgan yilgiga nisbatan 12,7%ga yuqori. AQSH investitsiyasi esa 890 mln. dollarga yetib, bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 76.7%ga yuqori.

3-diagramma

Shenchjen iqtisodiyotida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd. doll.da)




Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/> ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Eksport darajasi 20,2% ga, ya'ni 245,53 mlrd dollarga oshdi. O'rta va kata shaharlar bo'yicha 19 yildan beri birinchi o'rinni olib kelmoqda.

4-diagramma


2011-yilda Shenchjenning eksport va import darajasi (% hisobida)



Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/> ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Iste'mol tovarlari sotuvi 17,8% ga ya'ni 352,09 mlrd. yuanga oshdi. Tashqi savdo esa 19,4% ga, ya'ni 414,1 mlrd dollarga oshdi.

**2011-yilda Shenchjenning tashqi savdo va iste'mol tovarlar sotuvi
ko'rsatkichi (% hisobida)**



Manba: Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/> ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Ilmiy izlanishlardagi yangi texnologiyalar va qulay sharoit Shenchjen sanoatining yuqori texnologiyali rivojlangan soha ustunlaridan biriga aylantirdi. 2011- yili Shenchjenda yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi umumiy qiymati 950.981 mlrd.yuan ga teng bo'ldi. 61.5% yoki 706.21 mlrd. yuan yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan mahsulotlarga jalb etilgan. Shenchjen ilmiy parki 1999-yil barpo etilgan. Ushbu parkning asosiy vazifasi 1-toifali mutaxassislarni o'qitish va tayyorlash, sanoat va izlanish resurslarini birlashtirish, ilmiy izlanish tashkil etish, shuningdek Shenchjen va Gongkong izlanish markazlari orasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishdan iborat. Hozirda bu ilmiy park xorijdagi 52 ta mashxur universitetlar kuchlarini birlashtirgan. Ommaviy axborot vositalarida xabar berilishicha, Shenchjen sanoat parki (ShSP) yuqori texnologiyali innovatsion yutuqlarga erishgan. ShSP 83 ta milliy laboratoriya, 3 ta milliy injenerlik laboratoriya, 8 ta milliy texnik parklarga ega. 3 ta malakali patent hizmatlari institutlari ushbu sanoat zonada o'z offislarini tashkil etgan.

Bundan tashqari, Shenchjen logistikasining umumiy raqobatbardoshligi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar standartlariga yaqin va tezkor samaradorligi bilan Xitoydagi boshqa shaharlar orasida yetakchilik qilgan. Shenchjen porti 7 yildan buyon dunyodagi to'rtinchi gavjum konteyner porti sifatida ish olib bormoqda. Shenchjen logistikasi 2010-yilda shaharlar YaIM ning 9.74% ni tashkil qilgan holda qo'shimcha qiymatning 92.63 mlrd. yuan miqdorida Xitoyga foyda keltirgan.

Shenchjen global ko'p funksiyali va yuqori samarali logistik markazda qurilgan. Logistika markazi va internet tizimi shaharlar logistikasining jadal rivojlanish asosini tuzishga yordam beradi. Shenchjen Xitoydagi eng yaxshi rivojlangan logistika sektoriga ega. Shenchjendagi yuk agentliklari jadal rivojlanib, bu yerdagi 3000 kompaniyadan 100 dan ortig'i dunyodagi yirik yuk agentliklari sirasiga kiradi. Shenchjenning "Shenchjen fond birjasi uyi" Xitoy havfsizlik markazlaridan biri hisoblanadi. 1949-yildan beri Xitoy bozoriga xorij banklarining qayta kirib kelishining alomati sifatida 1982-yilning yanvarida Nanyang Tijorat Bankining Shenchjen shahobchasi ochildi. Hozir shaharda 33 ta xorijiy banklar, 4 ta shaxobcha va 5 ta vakillik idoralari bor. Shenchjenda madaniy sanoat sohasi yuqori texnologiya, mahsulot ishlab chiqarish va tarqatish hamda moliya sanoatlaridan keyin shaharning to'rtinchi ustuni bo'lish uchun tezlik bilan o'sgan. Shenchjen madaniy sanoat sohasidagi o'lchami va o'sish darajasi bo'yicha Xitoyning yetakchi shaharlari qatoridan joy olgan. Madaniyat va texnologiya, madaniyat va moliya hamda madaniyat va turizm o'sish modeli yuzaga kelgan. Tencent, Huaqiang, Culture and Technology, A8 Music, Newplan, Jinjia, ACTO, Visionchina Media Inc. va boshqa mahalliy firmalar aholiga madaniy sanoatning ulkan imkoniyatlarini namoyish etgan.

Shenchjen 2008-yil 19-noyabrda UNESCO tomonidan «Creative Cities Network» (Bunyodkor shaharlar tarmog'i) ga a'zolikka qabul qilingan va UNESCO ning «Dizaynlar shahri» sharaflari nomini olishga muvaffaq bo'lgan. U bunday nomga ega bo'lgan dunyodagi oltinchi shahardir. Guangdong provinsiyasi hokimiyati, Shenchjen shahar hokimiyati, Madaniyat vazirligi va Tijorat vazirligi kabi davlat institutlari homiylik qiladigan Xitoy (Shenchjen) Xalqaro Madaniy Sanoat ko'rgazmasi (ICIF) UFI tomonidan tasdiqlangan tadbirdir. Bu Xitoy Madaniy ko'rgazmasi davlat miqyosidagi yagona ko'rgazma bo'lib, har yili may oyida Shenchjen shahrida bo'lib o'tadi. ICIFning 2011-yildagi yettinchi ko'rgazmasida umumiy ayirboshlash 120 mlrd. yuandan, eksport ayirboshlash esa 12 mlrd. yuandan oshib ketishi bu ko'rgazmani birinchi raqamli Xitoy Madaniy Sanoatlari ko'rgazmasiga aylantirdi.

Xitoy multipilikatsiya sanoati asoslaridan biri bo'lgan Shenchjen, xorijiy

kompaniyalar uchun eng ko'p multifilmlar ishlab chiqaruvchi birinchi shahar hisoblangan. 1989-yil o'rtalarida Gonkongda birinchi multipilikatsiya kompaniyasi barpo etilgan. Shundan beri Shenchjen 70% xitoy multipilikatorlarning uyi hisoblanadi. Bugungi kunda Shenchjen shahri multifilm va animatsion filmlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda muhim o'rin egallaydi. Unda multifilmlar, 3-D animatsion filmlari va kompyuter o'yinlari uchun dasturlar yaratilgan.

2.3. Xitoyning erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish tajribasidan O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlari

Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda miqdor va o'zlashtirish maydoni bo'yicha gigantomaniyaga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarining tez muddatlarda samara berishi va valyuta daromadlari keltirishining noreal ekanligini anglash, xorijiy texnologiyalarni jalb etish va boshqarish qobiliyati va tajribasini egallash muhim ahamiyatga ega. Xorijiy va mahalliy investorlarga imtiyozlar taqdim etish, soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi qonuniy — me'yoriy asosni ishlab chiqish bo'yicha ishlarni bajarish zarur. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasida ixcham erkin iqtisodiy zonalar barpo etish maqsadga muvofiq. Bunday erkin iqtisodiy zonalarda qisqa muddatlarda va unchalik yirik bo'lmagan xarajatlar evaziga zaruriy infratuzilmani ta'minlash va imtiyozli bojxona tartibini ta'minlash mumkin. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar joylashgan o'rnini tanlashda ularning xalqaro ishbilarmonlik markazlariga va bozorlarga yaqinligi, infratuzilma muassasalarining mavjudligi, moddiy — texnika bazasi bilan ta'minlanganligi va boshqa omillarni birinchi navbatda hisobga olish lozim.

Xitoyda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan eng muhim erkin iqtisodiy zonalar shakllaridan biri — texnoparklardir. Erkin iqtisodiy zonalarining mazkur shakli O'zbekiston uchun ham istiqbolli hisoblanadi. Buning bir qator sabablari mavjud:

Birinchidan, texnoparklar ilmiy ishlanmalarning ishlab chiqarishga joriy

etilishini jadallashtirish maqsadida yirik ilmiy va o`quv markazlari hududlarida tashkil etiladi. Buning uchun esa ular nafaqat zamonaviy laboratoriyalar, laboratoriya uskunalari, balki sanoat sharoitida unikal priborlar, mashina va uskunar tayyorlash uchun mini zavodlar bilan ta`minlanadilar. Ayni vaqtda laboratoriya va mini zavodlar sharoitida zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etish muammolari hal etiladi. Bu yo`nalishda yuqori fan —texnika salohiyatiga ega bo`lgan Toshkent shahridagi talabalar va akademiklar shaharchasi eng muvofiq keladi.

Ikkinchidan, texnoparklar mustaqil O`zbekiston Respublikasi uchun ilm talab sanoat tarmoqlari, elektrodvigatellar, murakkab maishiy xizmat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosi sifatida tashkil etiladi. Bunday texnoparklar uchun "Uzelektroapparat" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Quyosh fizikasi, Foton, Algoritm, Sovplastital qo`shma korxonasi va boshqalar baza bo`lib xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasining erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish sohasidagi tajribasining yana bir e`tiborga loyiq jihati — erkin chegara savdosi zonasidir. O`zbekiston Respublikasining boshqa chegaradosh mamlakatlar bilan kesishgan hududlarida erkin chegara savdo zonasini tashkil etish mamlakatlar o`rtasidagi integratsion aloqalarni kuchaytirish bilan birga mamlakatimiz tashqi savdosini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi. Xitoy Xalq Respublikasining turizm sohasidagi tajribasi ham e`tiborga loyiq. Xalqaro turizm zonolari Xitoyga yirik valyuta daromadlarini keltiruvchi muhim manba hisbolanadi. O`zbekistonda esa xalqaro turizm zonalarini Samarqandda, Buxoroda, Xivada, Farg`ona viloyatining qator shaharlarida, shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jadal sur`atlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu esa o`z navbatida mamlakatimizni yirik valyuta mablag`lari bilan ta`minlashi va bandlik muammosini hal etishga ijobiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Shunday qilib, O`zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining alohida ixcham shakllarini barpo etish uchun zaruriy shart —sharoitlar mavjud. Shu bilan birga bunday zonalarini Xitoy Xalq Respublikasidagi singari yirik miqyosda tashkil etish masalasi keskin emas. Yana shuni ta`kidlash lozimki, Xitoyning erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish tajribasidan O`zbekistonda to`g`ridan to`g`ri foydalanish

maqsadga muvofiq emas. Gap shundaki, Xitoy Xalq Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining muvaffaqiyatli rivojlanishi bir qator omillar bilan tushuntiriladi. Bu omillar quyidagilardan iborat:

— Xitoyning Shimoliy — Sharqiy, Sharqiy va Janubiy Sharqiy rayonlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarining dengiz yo'llariga chiqish nuqtai nazardan geoiqtisodiy jihatdan qulay joylashganligi;

— XXRning erkin iqtisodiy zonalarida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning asosiy iste'molchilarga yaqin ekanligi va Xitoy uchun eng zamonaviy texnika va texnologiyalar yetkazib beruvchi mamlakatlarning geografik jihatdan yaqinligi;

— Xitoy Xalq Respublikasining ajralmas qismi hisoblangan va moliyaviy — iqtisodiy jihatdan qudratli Tayvan, Makao, Gonkong davlatlarining mavjudligi. Bu mamlakatlar XXRdagi iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich bosqichidayoq Xitoy iqtisodiyotiga investitsiyalarni amalga oshirish uchun yirik miqdordagi bo'sh kapital mablag'lariga ega edilar;


— Malayziya, Indoneziya, Filippin va Janubiy — Sharqiy Osiyoning boshqa yangi industrial mamlakatlarida asli xitoylik bo'lgan aholi qatlamining yuqori ulushga ega ekanligi. Bu aholi qatlami yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlar moliyaviy — iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va yirik kapitalga ega bo'lgan kishilardir va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, respublikamiz xuddi boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari singari obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra erkin iqtisodiy zonalarini ustun darajada rivojlantirish uchun Xitoy Xalq Respublikasiga xos bo'lgan imkoniyatlarga ega emas. Bu, eng avvalo, mamlakatimizda yirik dengiz portlarining mavjud emasligi bilan bog'liq. Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy islohotlar va "ochiq eshiklar siyosatining" boshlang'ich davrida — 1981 — 1982 yillarda paydo bo'ldi va mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayonlariga, Xitoyning jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuviga hamda 2001 yilning oxirida Butun Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishiga kuchli ta'sir

ko'rsatdi. Shu sababli Xitoyda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va "ochiq eshiklar siyosati"ga hamda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish tajribasiga jahonning ko'plab mamlakatlari tomonidan qiziqish bildirilmoqda. Shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda ham ushbu tajribani o'rganishga va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish bo'yicha Xitoy tajribasidan mamlakatimizda foydalanish yo'nalishlarini asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

4-jadval

O'zbekistonda EIZ faoliyat ko'rsatishining ehtimol bo'lgan natijalari



Shu bilan birga O`zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish bo`yicha aniq chora — tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1996 yilda "Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq mamlakatimizda erkin savdo, erkin eksport — ishlab chiqarish va texnologik zonalar tashkil etish ko`zda tutilgan. Bu zonalar tashkil etishda xorijiy mamlakatlar, shu jumladan Xitoy Xalq Respublikasi tajribasini hisobga olish va ularning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish nazarda tutilgan. Mazkur qonunga muvofiq, O`zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar barpo etilgan taqdirda ular oldiga aniq maqsad — jahon bozorida raqobatbardosh eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi texnologiyalarni rivojlantirish maqsadi qo`yiladi. Bunday yondashuv Xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlar tajribasida o`z samaradorligini ko`rsatdi.

Eksport ishlab chiqarishini rivojlantirish esa eng yangi texnologiyalar va jahon sifat standartlariga erishishni taqozo etadi. Eksport ishlab chiqarishini rivojlantirish quyidagilarga imkon beradi:

- jahon bozoridagi kuchli raqobat, ichki nomunatosibliklarni bartaraf etish va foydanilayotgan zahiralarni izlab topish zaruriyati tufayli iqtisodiyotni barcha bo`g`inlarida boshqarish sifati yaxshilanadi;

- eksportni barqaror o`stirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o`sish ta`minlanadi;

- ko`p sonli ish o`rinlari yaratiladi, chunki ishchi kuchining arzoligi tufayli tashqi bozorda mehnat sigimi yuqori bo`lgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi yuqoriroq bo`ladi;

- bozor sig`imining kattaligi evaziga miqyos samarasining yuqori bo`lishi ta`minlanadi, bu esa chuqurroq ixtisoslashuv va shu orqali jahon xo`jaligida munosib o`rin egallashga imkon beradi;

- texnologik rivojlanish jadallashadi va "inson kapitali" ning sifati oshadi, chunki vaqt o`tishi bilan jahon bozorining qattiq talablari ta`sirida eksportyorlar texnologiyalar, loyihalashtirish, sifatni boshqarish va nazorat qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish va menejment sohasida ko`proq bilimga ega bo`lib boradilar;

— bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi negaki, investorlar mamlakatlarning to'lov qobiliyati, ayniqsa, esport tushumlari miqdoriga qarab tegishli qarorlar qabul qiladilar;

— xorijiy uskunalarni import asosida sotib olish uchun xorijiy valyutalar tushumi ortadi va hokazo.

Tabiiyki, erkin iqtisodiy zonalarini barpo etish orqali eksportni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish umumiy darajasining oshishiga olib keladi. Bu ayniqsa, xorijiy eksportyor firmalar bilan hamkorlikda ishlayotgan korxonalar uchun qulay shart —sharoitlar yaratadi. Umuman olganda, eksport ishlab chiqarishini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasida qo'ygan vazifalarini, xususan, "iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni yanada chuqurlashtirish va investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish", "yangi tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarini barpo etish", "eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish", va "mahalliy xom ashyo asosida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish turlarini tashkil etish" vazifalarini hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bularning barchasini hisobga olgan holda, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holatini tahlil qilish asosida erkin iqtisodiy zonalarining respublikamizga muvofiq keladigan shakllarini tanlash bu sohadagi eng muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalarining hajmi to'g'risidagi masala ham jiddiy masalalardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan erkin iqtisodiy zonalarining turli shakllarini tashkil etish sohasida Xitoy tajribasi samarali hisoblanadi. Umuman, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy hamkorli keng doiradagi masalalarni qamrab olib, o'zaro manfaatli aloqalarga asoslangan. XXR bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston uchun xalq xo'jaligining zamonaviy tuzilmalari barpo etilishiga, dunyo bozorlariga eltuvchi yo'llarni qurilishiga va mamlakat tranzit salohiyatini kuchaytirishga hamda jahon iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan integratsion aloqalarini yanada chuqurlashtirishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy mintaqalar to'g'risidagi" Qonunda belgilanganidek, har bir erkin iqtisodiy mintaqa Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga asosan Oliy Majlisning qarori bilan tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy mintaqani tashkil etishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Erkin iqtisodiy mintaqani tashkil etish to'g'risida mahalliy hokimiyatning qarori.
2. Erkin iqtisodiy hududga beriladigan mavqe, boshqaruv tashkilotlari va rasmiy nomi ko'rsatiluvchi Nizom loyihasi.
3. Mazkur hudud joylashgan hudud chegaralari aniq ko'rsatilgan xaritasi.
4. Tashkil etiluvchi hudud faoliyatining texnik-iqtisodiy asosnomasi.
5. Erkin iqtisodiy hududni tashkil etish to'g'risidagi qarorning loyihasi.

O'zbekistonda tashkil etilishi ko'zda tutilgan erkin iqtisodiy hududlar bo'yicha bir qancha loyihalar mavjud bo'lib, bu loyihalarning ko'pchiligi ayrim sabablarga ko'ra amalga oshirilgani yo'q. Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston hududida shakllantirish zarur bo'lgan erkin iqtisodiy hududlar maqsadi va hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarga ko'ra quyidagi turda bo'lishi kerak:

Jumladan, O'zbekiston hududida bizning fikrimizcha, quyidagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish maqsadga muvofiq:

- Toshkent, Andijon viloyatlarining Qozog'iston va Qirg'iziston bilan chegaradosh hududlarida erkin savdo hududlarini;
- Samarqand, Xiva, Buxoro yo'nalishlarida erkin turistik hududlarini;
- Toshkent shahrining yirik universitetlari joylashgan Talabalar shaharchasida, Mirzo Ulug'bek shaharchasida, Parkentda texnoparklarni.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, ta'kidlash joizki, Xitoy iqtisodiy rivojlanish strategiyasidan O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat deb o'ylaymiz:

-birinchidan, mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini Xitoy kabi erkin iqtisodiy zonalarini barpo etgan holda, ularda muayyan imtiyozlar tizimini va investitsion iqlimni shakllantirish orqali ko'paytirib, sarmoyalardan ratsional va unumli foydalanish;

- ikkinchidan, asosiy tarmoq hisoblangan qishloq xo'jaligida mahalliy ishlab chiqarishni (mahalliyashtirish orqali) yo'lga qo'yish;

- uchinchidan, hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida, O'zbekiston o'z eksport salohiyatidan oqilona foydalanishi va Xitoy tajribasidan kelib chiqib, ishlab chiqarishini ichki iste'molchilarga qaratishi hamda bu borada mahsulotlar tannarxini pasaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozimdir;

- to'rtinchidan, O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiyasini kengaytirgan holda, Osiyo qit'asi bozorlari bilan o'z savdo aylanmasini tayyor va yarim tayyor mahsulotlar evaziga oshirishni yo'lga qo'yishi lozim;

- beshinchidan, Xitoy davlati kabi mamlakatga jalb qilinayotgan sarmoyalarni O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va ularni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga, yo'naltirish lozim;

- oltinchidan, eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va firmalar uchun, Xitoydagi kabi O'zbekistonda ham, belgilangan soliq yukini yengillashtirib borish kerakdir;

- yettinchidan, Xitoy tajribasidan, O'zbekistonning qishloq hududlarida chet el sarmoyalari ishtirokida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish lozimdir.

Erkin iqtisodiy zonalar tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantirishga xizmat qilar ekan, bir qator shart — sharoitlarning ham mavjud bo'lishini taqozo etadiki, O'zbekistonda bunday shart—sharoitlar cheklangan. Shunga qaramasdan mamlakatimizning tabiiy — iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda erkin iqtisodiy zonalarining O'zbekistonga muvofiq keladigan shakllarini rivojlantirish tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga, ishlab chiqarishga yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirishga va pirovard natijada aholi turmush farovonligini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xitoyda EIZlarning barpo etilish sabablari va rivojlanish bosqichlari (Shenchjen misolida) bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishi natijalarini umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga keldik:

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishda davlat o'z oldiga turli vazifalarni qo'yadi. Ba'zi bir davlatlar esa, ushbu zonalar orqali konkret mintaqaviy muammolarini hal etishga harakat qiladilar. Bu mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p hollarda kutilgan ishsizlik bilan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajasi bilan, ishlab – chiqaruvchilari va iste'molchilar qiziqishi hamda ularning himoyasi bilan bog'liqdir. Boshqa davlatlarda erkin iqtisodiy hududlar o'z ishlab – chiqarishining raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or xorijiy texnologiyalardan va boshqarish tajribalaridan hamda jamg'arma vositalaridan samarali va keng foydalanmoqdalar. Erkin iqtisodiy hududlarda yaratilgan imkoniyatlar har ikki tomon manfaatlariga mos keladi. Erkin iqtisodiy hududlarda chet el sarmoyasi uchun yaratilgan afzalliklar qatoriga imtiyozli soliqlarning mavjudligi, mintaqaviy milliy bozorga chet el sarmoyasining kirish huquqining mavjudligi, past xarajatli ishlab – chiqarishni ta'minlash uchun muayyan sharoitlarning mavjudligi (jumladan, arzon ishchi kuchi hisobida), pasaytirilgan foiz stavkalari bo'yicha moliyalash imkoniyatining mavjudligi, yerga mulkchilik huquqining mavjudligi kiradi.

Bu yaratilgan imkoniyatlardan milliy iqtisodiyot ham foyda ko'rishi mumkin. Masalan joylardagi tabiiy resurslardan yanayam ratsional foydalanish lozimligi, ushbu zonalarga yangi texnika va texnologiyalarni olib kirish zarurligi, savdo-eksport operatsiyalarini amalga oshirish, eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot strukturasi qayta qurish, aholi bandligini oshirish, ular uchun ish o'rinlari yaratish va uning natijasida ishsizlik darajasini pasaytirish, aholini yashash farovonligini oshirish, ularning oladigan daromadining yuqoriligini ta'minlash va yuqori sifatli tovarlar bilan mintaqaviy bozorni yanada to'ldirish, ichki bozorda xalqaro tijorat,

mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni vaqtincha himoya qilish, xalqaro kreditlar uchun qulay sharoitlar yaratish va moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun yangi imkoniyatlarni izlashdan iborat.

Mana shu yuqorida qayd etilgan imkoniyatlar har bir milliy iqtisodiyot uchun zarurdir.

Xitoy erkin iqtisodiy hududlari yangi iqtisodiy aloqalarning bosh vositasichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina xalq iste'mollari, xususan, bolalar o'yinchoqlari, poyafzal, velosipedlar, plastikadan ishlangan uy ro'zg'or buyumlari va boshqalarni ishlab chiqarishda, Xitoy erkin iqtisodiy zonalarini dunyoda asosiy o'rinlarni egallamoqda.

Hozirgi kunda nafaqat Xitoyda balki bugun chet ellarda tobora qiziqish uyg'otayotgan Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi ham O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Davlatimiz rahbarining "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga hali uch yil to'lmagan bo'lishiga qaramasdan Navoiy xalqaro aeroporti hududida ko'lamli va beqiyos ishlar amalga oshirildi. Bu esa viloyatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirib qolmay, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy yuqori texnologiyalarni hayotga joriy etish, xorijiy investitsiyalar jalb qilish ufqlarini kengaytirmoqda. Jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, aholi faravonligini yanada yaxshilash borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajribada erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish nafaqat sarmoyalarni jalb etishda, balki hududiy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida samarali foydalaniladi. Xalqaro hamjamiyat respublikamizni ishonchli investitsion sherik sifatidagina emas, ayni paytda investitsion va boshqa majburiyatlarni talab darajasida bajaradigan sobitqadam davlat deb biladi.

Bugun bu zamin chet elliklar nazdida Navoiy sanoat industriyasi taraqqiy topgan ulkan imkoniyatlar shaxriga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining Qonunlari va Prezident asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.
2. “O'zbekiston Respublikasi “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida”gi farmoni. 2012 y.
3. “O'zbekiston Respublikasi “Jizzax” soliq va boj ustamalari tushirilgan maxsus iqtisodiy zona to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 18-mart 2013 y № P-3347.
4. Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni 13.04.2012 y.
5. O'zbekiston Respublikasining « Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida »gi Qonuni, 1996 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining « Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida »gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni, 2009 yil.
7. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” – T.: “O'zbekiston”, 2011 y.
8. Распоряжение Президента Республики Узбекистан “О мерах по реализации инвестиционных соглашений, подписанных по итогам международной конференции Свободная индустриально-экономическая зона в Навои: новые инвестиционные возможности для корейских партнеров” от 25.03.2009 г. № P-3147.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 23 apreldagi

120-son Qaroriga 2-ilova “Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida soliq rejimini ta`minlash tartibi to`g`risida Nizom”.

10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta`minlash tartibi to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 23.04.2009 y. 120-sonli Qarori.
11. 11.Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 105-son qaroriga 2-ilova “Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasida joylashtirish uchun investorlarni tanlash tartibi to`g`risida Nizom”.

Maxsus adabiyot va darsliklar.

12. Е.Ф.Авдокушин «Международные экономические отношения»,Москва, Учебное пособие, Информационно-внедренческий центр «Маркетинг», 1997
13. Данько Т. П., Окрут З. М.. Свободные экономические зоны. М.: Инфра-М, 1998.
14. Ключня В.Л. Свободные экономические зоны как фактор прогресса страны: учебное пособие для студентов экономического факультета / В.Л. Ключня - Минск: Белорусский государственный университет, 2008 г. - 153 с.
15. Мозиас П. Свободные экономические зоны: тенденции мирового опыта // Финансовый бизнес. 1994, №3.
16. Мелибаева Г.А., Алиджанова О.Т.Учебно-методический комплекс по предмету “Характерные особенности деятельности Свободных Экономических Зон Китая” Toshkent -2011-33 с.
17. Melibayeva G.A.; F.Sh. Gaziyeu. Xitoyning Markaziy Osiyo Mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. Toshkent-2011-53-b
18. Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. Toshkent-2011-215-b.
19. Sadibekova B.D.- Xitoy iqtisodiyoti III qism- Toshkent -2011. 5-b
20. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev M.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar // O`quv qo`llanma “Moliya” 2011 y.

21. Гельбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса //Мировая экономика и международные отношения, №11,2011.с.64
22. Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник?// Вопросы экономики, № 9, 2010.с.97
23. Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «реформ и открытости» в Китае.// Мировая экономика и международные отношения, № 6, 2009.с. 73-83.
24. Гельбрас В. Россия и Китай: неизбежность судьбоносных перемен.//Вопросы экономики, №11, 2011.с. 109-121.

Jurnal va maqolalar.


25. Деловой ПАРТНЕР.UZ №18(994) 2-8мая 2013. Б.М.Турсунов; Э. Махмудов. **Вектор инвестиций и инноваций: итоги VI Международного Инвестиционно-финансового форума и Республиканской ярмарки инноваций** . 5-стр.
26. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat” ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, TDSHI, 2011y. Г.А. Мелибаева, О.Алиджанова Китайский опыт создания свободных экономических зон (на примере СЭЗ Шэньчжэнь) 185-стр.

Internet resurslar.

27. www.uza.uz
28. Shenchjenning rasmiy sayti: <http://english.sz.gov.cn/>
29. <http://www.china.org.cn/russian/31516.htm>
30. [http://www.centrasia.ru/news_A.php? stk 1049697540](http://www.centrasia.ru/news_A.php?stk_1049697540)
31. [http://geo.1september.ru/article.php? ID k 200701906](http://geo.1september.ru/article.php?ID_k_200701906)
32. <http://www.uniastrum.ru>
33. http://www.bauhinia.org/schi_index.htm
34. http://www.chinawindow.ru/?/ru/news/kitaj_i_wto
35. <http://shenzhennoted.com/2011/09/10/shenzhen-population-statistics-1979-2011/>
36. <http://www.chinaknowledge.com/newswires/NewsDetail.aspx?type=1&cat=INS&NewsID=50348>

ILOVALAR


2009-2020 yillarda Gonkong, Shenchjen, Guanchjouning o`rtacha
YaIM ko`rsatkichi (yuanda)



+ Gonkong; + Shenchjen; + Guanchjou.


Manba: http://www.bauhinia.org/schi_index.htm

**Xitoyning erkin iqtisodiy zonalarida istiqomat qiladigan aholi soni
(mln.da)**



Manba: http://www.chinawindow.ru/?/ru/news/kitaj_i_wto ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**2012-yilda XXRning savdo hamkorlari bilan tovar aylanmasi
(mlrd.dollarda).**



Manba: http://www.chinawindow.ru/?/ru/news/kitaj_i_wto ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.